

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KUDRATOV LAZIZ FARXODOVICH

**MATNNING ASPEKTUAL TARKIBI VA UNING PRAGMATIK
VAZIFALARI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
in Philology**

Kudratov Laziz Farxodovich

Matnning aspektual tarkibi va uning pragmatik vazifalari
(ingliz va o‘zbek tillari misolida).....3

Кудратов Лазиз Фарходович

Аспектуальное содержание текста и его прагматические функции
(на примере английского и узбекского языков)21

Kudratov Laziz Farkhodovich

The Aspectual Composition of the Text and its Pragmatic Functions
(on the example of English and Uzbek Languages)43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KUDRATOV LAZIZ FARXODOVICH

**MATNNING ASPEKTUAL TARKIBI VA UNING PRAGMATIK
VAZIFALARI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Fil2567 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Djumabayeva Jamila Sharipovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Musayev Abish Abilkaziyevich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 22 » aprel soat 11⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (857 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 8 » aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil « 8 » aprel daqi 26-05 -raqamli reestr bayonnomasi.)



D.I.Xodjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

O.O.Bobokalonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari falsafa doktori(PhD), dotsent

O.M.Fayzulloev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida diskurslarning turli ko‘rinishlariga tegishli matnlar tarkibini hosil qiluvchi lisoniy vositalarni chog‘ishtirma nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Xususan, matndagi turli kategoriyalarning faollashuvi, ularning semantikasi, pragmatik vazifalarini belgilash, ma’lum grammatik kategoriyalarni matnda ko‘rib chiqish, ularning pragmatik vazifalarini aniqlash, grammatik kategoriyalarning kommunikativ xususiyatlarini belgilash, turli kategoriyalarni matn tarkibida qiyosiy chog‘ishtirish zaruratini yuzaga keltiradiki, bu turli tillar tizimidagi pragmatik, semantik jihatlarni nazariy asoslashga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida badiiy matndagi eng muhim grammatik kategorial materialni aniqlash, matnning ekspressivligi, informativligi, kommunikativligi, matndagi zamon, makon, voqea-hodisa kechimi, ma’nolar dinamikligi, ularda aspektual va temporal kategoriyalar ifodalanishi, badiiy matn tarkibidagi vositalarning pragmatik va semantik jihatlarga e’tibor qaratilmoqda. Bu borada turli tizimli tillarga tegishli ingliz va o‘zbek tillariga xos badiiy matnlar tarkibidagi grammatik kategoriyalarning pragmatik mazmunini aniqlash, badiiy matnlar pragmatikasi va semantikasini shakllantiruvchi lisoniy vositalarning kategorial tamoyillarini belgilash, ularni aniqlovchi deytik vositalarni tavsiflash, aspektual semantikaning faollashishi, aspektual ma’nolarni matn tarkibida ko‘rib chiqish va ilmiy asoslashga imkon yaratadi.

Hozirgi kunda respublikamizda chet tillarining o‘rganilishi hamda o‘rgatilishiga bo‘lgan ehtiyoj bu boradagi tadqiqot ishlarining keng ko‘lamli bosqichga chiqishiga turtki bo‘lmoqda. Boshqa sohalar singari tilshunoslikda, xususan, chog‘ishtirma tilshunoslikda ham o‘zbek tiliga oid turli lisoniy sathlarni dunyoning boshqa til sathlari bilan chog‘ishtirishda qiyoslanayotgan tillarning grammatik, leksik-semantik, pragmatik xususiyatlarini ochib berish o‘ziga xos dolzarblilik kasb etmoqda. Bu vositalar shakllanishining kognitiv mexanizmlarini aniqlash va o‘rganish kommunikatsiya nazariyasi masalalarining to‘laqonli yoritilishi uchun xizmat qiladi, shuningdek, noverbal semiotika haqidagi qarashlarning ilmiy asosini mustahkamlaydi, sohaning umumiy tadqiqini takomillashtiradi¹. Bu boradagi vazifalar tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar ko‘lamining kengayishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchilari bilan suhbatidan / <https://sputniknews-uz.com>

sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Matn tarkibida faollashadigan vositalarning pragmatik va semantik qo‘llanishi bilan aloqador masalalar o‘rganilishi o‘z nazariy asoslariga ega. Tilshunoslikda matnda faollashadigan vositalar diskursiv-pragmatik nuqtayi nazardan yondashuv masalalariga keng e’tibor qaratilmoqda. Matnning pragmatik va semantik tarkibi murakkab struktura bo‘lib, ular ma’no va mazmunini turli yondashuvlarda o‘rganadi. Matnning pragmatik mazmuni, diskursiv mohiyati jahon tilshunosligida² G.V.Kolshanskiy, V.G.Borbotko, O.I.Moskalskaya, E.E.Anisimova, N.S.Valgina, V.V.Vinogradov, T.G.Biryukova, L.G.Fridman, hamda o‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, A.Mamajonov, N.Mahmudov, D.S.Xudoyberganova, D.Ashurova kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Bevosita aspektual semantika haqida gap ketganda, bu sohaning tasnifi va tavsifi³ P.Hopper, R.Boogard, T.Jonseen, I.P.Ivanova, va o‘zbek olimlaridan B.Rizayev, G.Mirsanov kabilarning tadqiqot markazida bo‘lgan.

² Кольшанский Г.В. Контекстная семантика. – Москва: Наука, 1980. – 148 с.; Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. – Грозный: Изд-во. Чеч.-Инг.ун-та, 1981. – 105 с.; Москальская О.И. Аранжировка предложений в тексте и проблема подчинение. – Москва: Изв. АН СССР, серия литературы и языка, 1980. – С. 521-530.; Анисимова Е.Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация (на материале креолизованных текстов). Учеб.пособие для студ. Москва: Академия, 2003. – 128 с.; Валгина Н. С. Теория текста. Учебное пособие). – Москва: Логос, 2003. – 280 с.; Виноградов В.В. О теории художественной речи. – Москва: Высшая школа, 1971. – 238 с.; Бирюкова Т.Г. Анализ и синтез текста. Учебное пособие. – Елец: ЕГУ, 2007. – 98 с.; Москальская О.И. Грамматика текста.– Москва: Высшая школа, 1981. –175с.; Фридман Л.Г. Грамматические проблемы лингвистики текста: Автореф. д-ра филол. наук. – Ленинград, 1979. – 52 с.; Nurmonov A. O‘zbek tilining paralingvistik vositalari haqida. – Andijon, 1980.; Mamajonov A. Tekst lingvistikasi.– Toshkent, 1989.; Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.; Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.; Xudoyberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol.fan.d-ri... diss. – Toshkent, 2015.; Ashurova D.Text Linguistics. – Tashkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 200 p.

³ Hopper P. Aspect between discourse and grammar// Tense -aspect between semantics and pragmatics,1982. – P.8-23.; Deborah Schiffrin. Tense Variation in Narrative. –Language 57/1 (1981), 58.; Smith, Carlota. A speaker-based approach to aspect/ Linguistics and Philosophy, 1986. – №9. –P. 97-115.; Boogard R., Jonseen T. Tense and Aspect II the Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. –Oxford University Press, 2007. –P.803-829.; Hopper P. Aspect between discourse and grammar// Tense -aspect between semantics and pragmatics,1982. P.8-23.; Иванова И. П. Вид и время в современном английском языке. – Ленинград, 1961. – 200 с.; Mittwoch, Anita. Unspecified arguments in episodic and habitual sentences // In The syntax of aspect: deriving thematic and aspectual interpretation, ed. – Oxford: Oxford University Press, 2005. 237–54.; Voelz, J.W. Present and Aorist Verbal Aspect: A New Proposal.– Neotestamentica 27 (1993). – P.64-153.; Белошапкова Т.В. Когнитивно-дискурсивное описание категории аспектуальности в современном русском языке: Автореф.док.фил.наук. –Москва, 2008. – 40 с.; Ризаев Б. Семантика конструкций с финитивными глаголами. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 152 с.; Ризаев Б. Аналитические средства семантического поля финитивности в современном немецком языке. – Самарканд: СамГИИЯ, 2019. – 155 с.; Мирсанов Ф. Дискурс таркибида аспектуал ва темпораллик мазмун ифодаси. Монография. – Тошкент: Наврўз, 2018. – 158 б.

O'zbek tilshunosligida ham matnning pragmatik semantik xususiyatlari⁴ D.U.Ashurova, M.Hakimov, N.Q.Turniyazov, B.Yo`ldashev, S.Boymirzayeva kabi tilshunoslarining e'tiborida bo'lgan. Ammo, badiiy matnni semantik, grammatik tarkibini belgilovchi temporallik va aspektuallik kategoriyalarining matndagi vazifalari, ularning kommunikativ va pragmatik funksiyalarini yoritish masalasi dolzarbliligicha qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand Davlat chet tillar instituti Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasining "Lisoniy vositalarning leksik-semantik ifodasi va pragmatik vazifalari tahlili" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi matnning aspektual tarkibi va uning pragmatik vazifalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tillariga xos badiiy matnlar tarkibidagi grammatik kategoriyalarning pragmatik mazmunini aniqlash;

ingliz va o'zbek badiiy matnlari pragmatikasi va semantikasini shakllantiruvchi lisoniy vositalarning kategorial tamoyillarini belgilash, ularni aniqlovchi deytik vositalarni tavsiflash;

qiyoslanayotgan tillarga tegishli badiiy matn strukturasiidagi temporal vositalarning ma'nosi va zamoni tavsifini mohiyatan asoslash;

ingliz va o'zbek badiiy matnlari semantikasini aniqlashda aspektuallikning lisoniy xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda aspektuallikning kogerantlik va kogeziya vazifalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti ingliz va o'zbek tillaridagi matnning aspektual tarkibi va uning pragmatik vazifalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy, tavsifiy, tasnifiy, tasviriy, lingvomadaniy, sotsiolingvistik va kognitiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

matndagi supersintaktik birlikning denotativ darajadagi korrelyatsiyasi makrovaziyat, ya'ni lisoniy tartibga tegishli kontinuumga munosabati bo'yicha o'ziga xos ierarxik tartiblangan, temporal va aspektual mazmunni o'z ichiga olgan kichik voqea-hodisa sifatida namoyon bo'lishi aniqlangan;

ingliz tilida perfekt va imperfekt oppozitsiyasining matndagi imkoniyatlari voqea-hodisalarni chegaralash, kogeziya funksiyalari, makro-vaziyatning verbal darajada ma'lum qolipda integrallashuvlarida namoyon bo'lsa, o'zbek tilida zamon shakllari, yetakchi va ko'makchi fe'l birikmalarida ifodalanadigan perfektiv va

⁴ Ashurova D. U. Text Linguistics. –Tashkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 200 b.; Hakimov M. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. –Тошкент, 1993. – Б.18-21.; Турниязов Н.Қ. Матн лингвистикаси. Маърузалар матни. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2003.; Йўлдошев Б. Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари. Усулий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 2008.; Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.номзоди дисс.–Тошкент, 2009.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол.фан.номзоди дисс.–Тошкент, 2010.

imperfektivlik matn ichidagi alohida vaziyatlarni tugallanishi, boshqa vaziyatlarga mazmunan integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qilishi asoslangan;

ikkala tilda ham fe'l zamon shakllarining aspekt semantikasi matndagi til birliklarini aniqlash jarayonida qo'shimcha temporal vosita sifatida xizmat qilishi barobarida matndagi lingvistik elementlarni aniqlashga bevosita ta'sir ko'rsatib, fe'l shakllarining o'ziga xos semantikasi bilvosita aniqlanadigan komponentlar orqali matnning mantiqiy va semantik tuzilishi bilan bog'lanishi isbotlangan;

ingliz va o'zbek badiiy matn tarkibidagi aspektual kategoriyalar perfektda referensiya, presuppozitsiya, matn tugallanganligiga ishora; imperfektda voqea-hodisalarning davom etishi, takroriy aktlar, bir necha voqea-hodisalarning bog'liqligi kabi pragmatik vazifalar ustivorligida namoyon bo'lishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

matndagi lisoniy vositalarning pragmalingsvistik xususiyatlari tavsifining diskursiv tamoyillari orqali tadqiq etilishi, matndagi axborotlarni pragmatik reprezentatsiyasi va kommunikativligi superfrazalar birliklari ifodalanishi yuzasidan olingan xulosalar matn tarkibi semantikasini ta'minlovchi tarkib ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

tadqiqotdan tilshunoslikda pragmalingsvistika, semantika, matn tilshunosligidagi leksik-semantik, funksional-semantik jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishda foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan;

dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashtirishida hamda matn pragmatikasi masalalarini hal qilishda nazariy manba bo'lib xizmat qila olishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi masalaning aniq qo'yilganligi, mavzu yuzasidan chiqarilgan xulosalar, uning metodologiyasi va metodikasi aniqligi, chiqarilgan xulosalarning qiyosiy, tavsifiy, tasnifiy, tasviriy, lingvomadaniy, sotsiolingsvistik, kognitiv tahlil metodlari bilan asoslanganligi, yo'nalishi bo'yicha qo'yilayotgan masalaning dolzarbligi, vazifalarning muhimligi, lisoniy dalillarning nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari qiyosiy-nazariy usullar yordamida yechilganligi va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalari, xususan, matnlarning pragmatik va semantik tadqiqi hozirgi kundagi tilshunoslikning dolzarb masalalari sirasiga kiruvchi aspektual semantika, pragmalingsvistika singari sohalar bo'yicha mavjud ilmiy ma'lumotlarni boyitishi va mukammallashtirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undan OTMlarning o'quv jarayonida semantika, matn tilshunosligi, pragmalingsvistika yo'nalishlari bo'yicha ma'ruza va seminarlar, maxsus kurslarni tashkil etishda, dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni tayyorlash, izohli, ensiklopedik lug'atlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillaridagi matnning aspektual tarkibi va uning pragmatik vazifalariga oid qiyosiy tahlil jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

matn supersintaktik birligining denotativ darajadagi korrelyatsiyasi makrovaziyat, ya'ni lisoniy tartibga tegishli kontinuumga munosabati bo'yicha

o‘ziga xos ierarxik tartiblangan, temporal va aspektual mazmuni o‘z ichiga olgan kichik voqea-hodisa sifatida namoyon bo‘lishiga oid nazariy xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan SUZ-800-21GR-381 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” mavzusidagi xalqaro tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 7-dekabrda 03/3703-son ma’lumotnomasi). Natijada matn tarkibida turli ifoda vositalaridan foydalanishda matnning semantik tarkibini shakllantirishga xizmat qiladigan temporal va aspektual vositalarning uyg‘unlashuvi natijasi ekanligi isbotlangan;

ingliz tilida perfekt va imperfekt oppozitsiyasining matndagi imkoniyatlari voqea-hodisalarni chegaralash, kogeziya funksiyalari, makro-vaziyatning verbal darajada ma’lum qolipda integrallashuvlarida nomoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida zamon shakllari, yetakchi va ko‘makchi fe‘l birikmalarida ifodalanadigan perfektiv va imperfektivlik matn ichidagi alohida vaziyatlarni tugallanishi, boshqa vaziyatlarga mazmunan integratsiyalashuvini ta’minlashga xizmat qilishiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” mavzusidagi xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 4-dekabrda 2662/02-son ma’lumotnomasi). Natijada matnlarning pragmatik va semantik tadqiqi hozirgi kundagi tilshunoslikning dolzarb masalalari sirasiga kiruvchi aspektual semantika, pragmalingvistika singari sohalar bo‘yicha mavjud ilmiy ma’lumotlarni boyitishga xizmat qilgan;

ikkala tilda ham fe‘l zamon shakllari aspekt semantikasi matndagi til birliklarini aniqlash jarayonida qo‘shimcha temporal vosita sifatida xizmat qilishi, matndagi lingvistik elementlarni aniqlashga bevosita ta’sir ko‘rsatib, fe‘l shakllarining o‘ziga xos semantikasi bilvosita, aniqlanadigan komponentlar orqali matnning mantiqiy va semantik tuzilishi bilan bog‘lanishiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024-yillarda bajarilgan AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” mavzusidagi xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 4-dekabrda 2661/02-son ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan tavsiyalardan mazkur xalqaro loyihani amalga oshirishda va uning o‘quv jarayonida undan unumli foydalanishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek badiiy matn tarkibidagi aspektual kategoriyalar perfektda referensiya, presuppozitiya, matn tugallanganligiga ishora; imperfektda voqea-hodisalarning davom etishi, takroriy aktlar, bir necha voqea-hodisalarning bog‘liqligi kabi pragmatik vazifalar ustivorligida namoyon bo‘lishiga oid nazariy xulosalardan Malaziyadagi Pendidikan Sultan Idris universitetida “A Framework of Teachers’ Digital and Artificial Intelligence Competencies Upskilling for Industry 4.0 and Industry 5.0” mavzusidagi xorijiy loyihada foydalanilgan (Pendidikan Sultan Idris universitetining 2025-yil 20-fevralda ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek badiiy matndagi lisoniy vositalarning axborot uzatish, ma’lumot

yetkazish kabi ma'lumotlari pragmatik assotsiatsiya natijasi ekanligi dalillangan va loyihaga singdirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 11 ta, jumladan 1 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 15 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati haqida ma'lumot berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va materiali aniqlangan; O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi belgilangan, muammoning o'rganilganlik darajasi izohlangan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar ko'rib chiqilgan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, dissertatsiya natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Matn sintaktik birlik sifatida**", deb nomlangan bo'lib, unda matn tilshunosligini o'rganish predmet, matnning sintaktik tarkibini belgilovchi vositalarning lingvistik tavsifi, bu borada olimlarning nazariy qarashlari, munosabatlari tahlilga tortilgan. Ma'lumki, matn tilshunosligi tahlilida matn tipologiyasi masalalari, ularning tarkibi, til vositalarining matn janriga mosligini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, matn tarkibini belgilashda murakkab sintaktik birliklar (MSB) haqidagi ta'limotlarda, matnning keng imkoniyatlari hamda sintaktik birliklarning strukturaviy-semantik xususiyatlariga atroflicha etibor qaratiladi⁵.

Matn borasidagi izoh V.N.Yarseva rahbarligida chop ettirilgan "Лингвистический энциклопедический словарь" lug'atida quyidagicha o'z ifodasini topgan⁶:

matn ekstralingvistik (pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va shu kabilar) faktorlar aloqadorligi majmuyi;

matn hodisaviy aspektda umumiy olinganligi;

nutq, insonlar munosabatida foydalaniladigan va ularning ongidagi mexanizm (kognitiv jarayonlar) komponentlarining maqsadli ijtimoiy harakati.

V. Krasnix matn parametrlarini quyidagicha keltirib o'tadi: 1) konsituatsiya; kommunikativ akt sodir etilayotgan ekstralingvistik reallik; 2) vaqt; kommunikativ

⁵ Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981. – С 14-15.

⁶ Лингвистический энциклопедический словарь/ Главный редактор. В. Н. Ярцева. –Москва: Большая Рос. энцикл., 2002. – 709 с.

aktning kechimi uchun vaqt faktori muhim ahamiyat kasb etadi. Uning tahlili jarayonida kommunikantlarning savol-javoblari orasidagi qisqa pauzalar nazarda tutiladi; 3) ishtirokchilar savol-javobining ketma-ketligi; savol-javoblar semantik va funksional yuklamani e'tiborga olgan holda mexanik tarzda kechadi; 4) konkret subyekt; kommunikant, muallif, nutqiy tafakkur mahsulotini keltirib chiqaruvchi shaxs; 5) nutqiy faoliyatni va nutqni keltirib chiqaruvchi *intensiya va stimul*; 6) nutqiy faoliyat mahsulotining *verbal shakli* matn sanaladi. Matn namoyishi berilgan mahsulotda qo'llaniladigan til vositalarining asosiy xususiyatlari ma'lum izoh, sharh orqali amalga oshiriladi; 7) ma'lum nutqiy harakatga qaratilgan reaksiya; muloqat jarayonidagi verbal va noverbal reaksiya; 8) matn tarkibi; mikromatn va makromatn; 9) matnning mantiqiy mazmunan qurilishi; muloqat jarayonida ma'lum lavhalar mantiqiy qismlarga ajratiladi; 10) aniq nutqiy ta'sir; nutqiy ta'sirning kommunikativ-pragmatik yo'naltirilganligi va illokutiv ma'no aniqlanadi; 11) nutqiy harakatlar orasidagi bog'liqlik; turli kommunikantlarning nutqiy harakatlari aniqlanadi⁷.

Matn aspektual munosabat nazariyasiga asoslanadi hamda aspektual tarkib berilgan mazmun va harakatdan iborat shakllanadi. Harakat hodisaning temporal o'lchamiga asoslanib quriladi. Tema esa, hodisaning makon o'lchamiga asoslanadi. Aspektual xususiyat hodisaning ichki harakat temporal tarkibga va temaning ta'sir doirasida ko'riladi.

Van Deyk matnda mikro vaziyat almashinuvi ko'rsatkichlarini aniqladi⁸: ehtimol tushunchaning o'zgarishi (til ko'rsatkichi–modallik semantik kategoriyasi), 2) vaqt yoki davr o'zgarishi (til ko'rsatkichi–temporallik semantik kategoriyasi), 3) makon ko'rsatkichi (til ko'rsatkichi–lokativlik semantik kategoriyasi), 4) yangi qatnashuvchilarning kiritilishi, 5) ma'lum bo'lgan qatnashuvchilarning qayta kiritilishi (til ko'rsatkichi–subyektivlik semantik kategoriyasi), 6) nuqtayi nazar yoki maqsadni o'zgartirilishi (til ko'rsatkichlari– kommunikativ maqsad, shaxs semantik kategoriyasi), 7) turli tipdagi predikatlar tarkibi. Agarda biror gap mazkur makropozitsiyaga mos kelmasa, yangi makropozitsiya yaratiladi.

Voqea/hodisa kuzatuvchi tomonidan boshdan oxirigacha qabul qilingan ma'lum joylashuvdagi vaqt segmenti sanaladi. Vaqt segmenti makon va vaqt cheklanishiga ega bo'ladi⁹.

Mikrovaziyat esa, matndagi tugal mazmunga ega voqea-hodisalarni qamrab oladi. Shu jihatdan matnning lisoniy elementlari semantikasini tahlil qilishda kontekst, keng kontekst (makrokontekst), qisqa kontekst (mikrokontekst) kabi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Matn komponentlari semantikasini tahlil qilishda kontekstli semantikaning ishtiroki tasodifiy emas, chunki matndagi nafaqat so'zlarning, balki gaplarning semantikasi har doim kontekstga asoslangan bo'ladi.

Ma'lumki, matnning asosiy belgisi informativlik sanaladi. Ma'lumot matnning nafaqat mahsuloti, balki uni idrok etishni ham talab qiladi. Shuning uchun ham,

⁷ Красных В. В. К вопросу о психолингвистическом анализе текста/Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – Вып.3, 1998. – С 111-118.

⁸ Тён А. ван Дейк. Дискурс и власть: Репрезентация доминирования в языке и коммуникации. Пер. с англ. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 62-63.

⁹ Michiel van Lambalgen and Fritz Hamm. The proper treatment of events. UK. Blackwell Publishing Ltd, 2005 – P. 15.

matn til sathlari nazariyasi doirasida tadqiq etishga qaratiladi. Bu borada, ya'ni matn va gap tabiati, matn va fikr hamjihatligi borasida tadqiqotchilar, tilshunos olimlar tomonidan yetarlicha ishlar amalga oshirildi.

1-jadval

Matnning tarkibiga ko'ra xususiyatlari

Matn turlari	
Mikromatn	Makromatn
Mikromatn deganda biror mavzuni yoritishga qaratilgan xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, hajviy asarlar, nomalar, she'rlar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi.	Makromatn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman kabi yirik hajmli asarlar makromatn sanaladi.

Matnning voqelik bilan o'zaro bog'liqligida uning barcha tarkibiy qismlari, nafaqat so'zlar, gaplar, SFB va undagi murakkab predikativ birikmalarning lug'aviy leksemalar hamda sintaktik tuzilmalari sifatida, balki, birinchi navbatda, nutq bo'lagidagi konkret predmet nomlari va aniq faktlar haqidagi bayonotlar tushiniladi¹⁰. Superfrazalar birliklarini ikki asosiy xususiyatga ajratgan holda ko'rib chiqishimiz mumkin: sintagmatik va funksional jihatlarga. Sintagmatik jihatdan SFB "maxsus bir-biri bilan uzviy aloqaga ega bo'lgan jumlar majmuyi" sifatida baholanadi¹¹. SFBdagi gaplarning bunday yondashuv asosida bog'lanishi uning tarkibiy va semantik yaxlitligini ta'minlovchi lingvistik vositalar birinchi o'ringa chiqadi. Funksional jihatdan SFB batafsil bayonot sifatida e'tirof etiladi¹². Bunda asosiy e'tibor SFBning strukturaviy va semantik xususiyatlari jihatidan uning referensial (murojaat vositasi) funksiyasiga qaratiladi. Shubhasiz, SFB bir vaqtning o'zida ham sintagmatik, ham funksional shakllanishni o'zida nomoyon etadi.

2-jadval

Matnning kategorial belgilari

1.	Xronotop kategoriya	Temporallik va lokativlik hamkorligi
2.	Koordinat kategoriya	Lokal, personal, temporal kategoriyalar hamkorligi
3.	Deyksis kategoriya	Temporal, lokal, personal va refrent kategoriyalar bog'liqligi
4.	Nuqtayi nazar kategoriyasi	Temporal, lokal, personal, refrent va modallik kategoriyalar bog'liqligi kuzatiladi

Tilning funksional kategoriyalari matnning quyi kategoriyalarini ifodalovchisi sifatida xizmat qiladi: 1) xronotop kategoriyasi, temporallik va lokativlik bog'liqligi natijasida hosil bo'ladi; 2) koordinat kategoriyasi, lokal, personal, temporal kategoriyalar hamkorligida yuzaga keladi; 3) deyksis kategoriyasi, temporal, lokal, personal va refrent kategoriyalarining bevosita bog'liqligi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi; 4) nuqtayi nazar kategoriyasi, temporal, lokal, personal, refrent, modallik kabi funksional kategoriyalarining aloqadorligini namoyish etuvchi kategoriya sifatida baholanadi¹³. Keltirilgan kategoriyalar matnning ichki grammatik va semantik turlarini tashkil etadi.

¹⁰ Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981. – 175 с.

¹¹ Москальская О.И. Аранжировка предложений в тексте и проблема подчинения. – Москва: Изв. АН СССР, серм литературы и языка, 1980. – Т.39. – С.521-530.

¹² Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981. – 175 с.

¹³ Колшанский Г.В. О формализации контекста/ В кн.: Машинный перевод и прикладная лингвистика. Сб. научн. трудов МГПИИЯ им.М.Тореза. – Москва, 1961. – Вып.5. – С.45-50.

Temporal va lokativ kategoriyalar hodisa, jarayon va vaziyatlarning davriy, vaqt oqimi va makondagi kechimini belgilaydi. Aspektuallik mazkur hollarda ifodalanadigan hodisalarning semantik turini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Ushbu jarayonlarda ifodalanadigan vaziyatlar davomiy, tugallangan, boshlangan, stativ kabi aspektual semantik ma'nolarda bo'lishi mumkin. Deyktik kategoriyasi kontekstdan kengroq matnda ifodalanadigan vaziyatlarning bajaruvchisi, makoni, temporal xususiyati kabi belgilarning ko'rsatgichi vazifasini bajaribgina qolmasdan, hodisa, vaziyatlarning aspektual semantik xususiyati bilan bog'liq birliklarga ham ishora vazifasini o'taydi.

Dissertatsiyaning **“Badiiy matn tarkibida aspektuallik va zamon shakllari oppozitsiyasi tavsifi”**, deb nomlangan ikkinchi bobida matnning kommunikativ sathida mazmun-mohiyatiga qarab fe'ning aspektual hamda zamon shakllarining semantik vazifalari tahliliga kengroq e'tibor qaratilgan. Aspektuallik nazariyasida predikatlarni voqea-hodisa (event) hamda holat (state) turlarga ajratish keng tus olgan. Bu tavsif Z. Vendlerga tegishli bo'lib, u alohida fe'llar va vaziyat turlariga nisbatan qo'llaydi¹⁴. Muallif temporal diskursni narrativ voqeliklar bilan bog'laydi. Natijada, matndagi predikatlar voqea-hodisa va statik kategoriyaga ajratiladi.

Ma'lum bir vaqt jarayonida voqea-hodisalarni ko'rsatadigan belgilar nominativ vositalar, temporal birliklar hozirgi vaqtni ifodalovchi belgilar, tarixiy voqealar, qahramonlar yoshligi, tarixiy hodisalarni namoyish etuvchi nominativ birliklar tashkil etadi.

Aspektual xususiyatlar tavsifi:



Fe'ning zamon shakli semantikasi va matnning kommunikativ istiqboli o'rtasidagi munosabatni o'rganish fe'ning imperfekt shakliga asoslangan kirish gaplarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Kirish gaplar o'zining semantik-sintaktik tuzilishiga ko'ra uslubiy tugallanmagan gaplarga o'xshash bo'lishi mumkin. Ularni aniq farqlash uchun ma'lum formal-semantik mezonlarni hisobga olish lozim. Semantik jihatdan imperfektivlikning tabiatini aniqlashda ular, odatda, uchta omilga asoslanadi, ya'ni fe'ning leksik tarkibi, shakli va, shu bilan birga, zamon ko'rsatkichlari shular jumlasidandir¹⁵. Imperfekt (tugallanmagan) shaklidagi terminativ fe'llar o'tgan zamondagi voqea-hodisani makonga joylashtirish, shuningdek uzoq davom etmaydigan, ko'pincha, bir lahzalik harakatni taqdim etishga qodir bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, imperfekt vaziyat yuzaga keladi.

Bu borada Parsonning o'tgan zamon operatori diskursiv pragmatik

¹⁴ Vendler Z. Linguistics in Philosophy. – New York, Cornell University Press, 1976.

¹⁵ Кржевская О.В. О стилистическом употреблении имперфекта индикатива/ Иностранные языки в школе.–№ 2, 1955. – С. 40-51.

xususiyatlari egzistensial miqdoriy intervalga tegishli degan tadqini ilgari suriladi¹⁶. Bunda voqea-hodisaning kulminatsiyaga yetadigan vaqti yoki holat saqlanib qoladigan vaqt mos keladi. Ingliz tilidagi perfektiv aspekt matn tarkibida inseptiv aspektni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. Ingliz tilida fazalar faollashuvi semantik va diskursiv pragmatik kategoriyalar o'rtasida bog'liqlikni ta'minlaydi. Jumladan, boshlang'ich faza progressiv vaziyatga presuppozitiv vazifani bajarishi mumkin. Masalan: – *Ele ... “She began, the closest approach to pronounce his name that got, she supposed, and that was how long the name. She turned and saw him extend his hand. Come ...”He gestured. As in a dream, Eleanor looked at him* (Anna Kehler, 56).

Mazkur lavhadagi aspektual ma'no holatiga kirishishni ta'minlagan. Bunda, holat o'zgarishi perfektiv, yangi holat yuzaga kelishi imperfektiv vaziyatni hosil qilgan. Har bir fazani shakllantirgan konstruksiya semantik jihatdan o'ziga mos bo'lib perfektivlik va imperfektivlik bir biri bilan bog'liqlikni belgilaydi. Matnda vaziyat birinchi hodisani o'z ichiga olishi mumkin. Bunday hollarda perfektiv vaziyat boshqa voqea-hodisalarga referensiya sifatida bog'lanadi.

Introduktiv gaplar har doim matnning biror bo'lagiga bosh gap vazifasida keladi. Ma'lum ma'noda ular matnning semantik tarkibiy qismini tashkil qiladi. Introduktiv gapning vazifasi, tabiiyki, matnning bitta yoki ikkita bo'laklari, ya'ni mano jihatdan keyingi gaplarga propozisiya bo'lib keladi. Bu paragrifdagi gaplarni mazmunan o'zaro chambarchas bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Paragrafda qo'llanilgan perfekt, plyuskvamperfekt aspektuallikning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Matn tarkibidagi boshqa zamon shakllari, jumladan, Past Progressive zamon shakli semantikasi doimo “harakat dinamikasi”ni hal etuvchi ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi¹⁷. “Harakat dinamikasi”ning ma'nosini ta'kidlaydigan bo'lsak, bu fe'l bilan ifodalanadigan voqea-hodisaning davomiyligi, rivojlanishini nazarda tutadi.

Matn doirasida tugallanmagan fe'l ma'nolari, fe'l shakllarining qo'llanilishi voqea-hodisalar keyingi kechimida kommunikativ jihatdan ochiq bo'lishini ko'rsatadi. Chunki matn doirasida semantik rivojlanish kuzatiladi, ya'ni voqea-hodisalar ketma-ketligi yuzaga keladi. Quyidagi lavhaga e'tibor qaratamiz:

Diana Marshalson was walking about in the garden, watering dying plants from a can. She shook her head at a shrub whose leaves had turned yellow and came towards the house, dropping the empty can and step ping inside by way of the open french window. ‘It’s hopeless,’ she said, sinking into a chair. ‘Everything needs a downpour going on all night, not half a can of water. Still’ - she looked at her husband (Ruth Rundell, 29). Ushbu lahadagi “*was walking about in the garden*” davomli shakl alohida mikro vaziyatni anglatib kelgan. Lavha jarayonidagi keyingi predikatlar “*shook her head*”, “*had turned yellow*”, “*came towards*” kabi alohida predikatlar turli tipdagi voqea-hodisalarni anglatib kelgan. Jumladan, “*shook*”, va “*came*” alohida bir shaxs harakati bilan bog'liq bo'lib harakatlar ketma-ketligini ifodalab kelgan bo'lsa, “*had turned yellow*” predikati subyekt vazifasida kelgan “*leaves*” nominativ otning bir shakldan ikkinchi shaklga o'tganligi, ya'ni natijaviy

¹⁶ Parsons T. Events in the Semantics of English: A Study of Subatomic Semantics. Cambridge, MA: MIT Press. 1990. – P. 126

¹⁷ Comrie. Aspect. – Cambridge: Cambridge university press, 1976.

harakatni (tugallangan harakatni) ifodalash uchun qoʻllanilgan. Mazkur lavhada “*whose leaves had turned yellow*” alohida matn ichidagi mikromatn vazifasini bajarib kelgan. Lavha soʻngidagi “*she looked at her husband*” nutq vaziyati jarayonida birqirralik harakatni ifodalash uchun qoʻllanilgan. Demak, tugallanmagan harakatning matnda qoʻllanilishini matnning ichki xususiyati sifatida baholash mumkin.

Matn doirasida qoʻllaniladigan imperfektiv aspektuallik odatda soʻzlovchining maʼlum bir faoliyatga nisbatan munosabatini yoki nutq vaziyati doirasida amalga oshiriladigan ish-harakati va bu ish harakatning kechimi bilan bogʻliq voqea-hodisalarni namoish etilishida koʻzga tashlanadi. Shuning uchun ham mazkur vaziyatda soʻzlovchi nutq vaziyatidagi harakat va hodisalarning kechimiga eʼtiborni qaratadi. Mazkur holatda “*hozirgi*” birligi amal qiladi. Quyidagi misollarga eʼtibor qaratamiz: *Juvon yana bir marta masjid sahnasiga qalampirmunchoq hidi burqitib roʻmolchasini yozdi. Jingalak kipriklariga ilinib qolgan yosh donalarini artdi. Yarim oʻksik ohang bilan bir necha kundan beri poylab yurib erining pasportini oʻgʻirlab chiqdi. Mana shuni olib bir soatga mani erim boʻlib turasiz, –dedi* (Gʻafur Gʻulom. Yodgor qissasi,47-bet).

A pinch-faced woman swaddled in black, who perched stiffly in the foremost seat clutching a small leather case, had protested the chill when someone pried open a window, and now the air was overly warm, packed with too many smells—sweet, heavy perfume, a whiff of onions, a baby who needed a change, a dozen more. (Law Susan p.12). Badiiy matn doirasida aspektual vaziyatlarning qoʻllanilishi yetkazilayotgan narrativ maʼlumotlarning yoki voqea-hodisalarning turli davrlarga tegishliligi, voqea-hodisalarning yetkazilayotgan maʼlumot sifatida alohida ajratilib koʻrsatilishi yoki ushbu maʼlumotlarda berilgan voqea-hodisaning bir maromda kechishi kabi xususiyatlar bilan ham bogʻliq. Bunda maʼlum bir matn doirasida berilgan vaziyatlar yoki voqea-hodisalar alohida mazmunga yoki alohida hodisa sifatida namoyon etiladigan boʻlsa, koʻpgina holatlarda ular perfektiv aspektual vaziyatni hosil qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Matn tarkibidagi perfektiv va imperfektiv shakllarning semantik-pragmatik funksiyalari**” deb nomlangan. Mazkur bobda matn hosil qiluvchi omillarning aniqlanishi ularning ierarxik tartibi, matnni shakllantirishda ishtirok etish darajasi masalasini koʻtaradi. Matnni tashkil etuvchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi: matnlarning temporal va makon tuzilishi, davomiylik, modallik, havola atributi, zamon shakli tuzilishi kabilardan iborat. Ushbu kategoriyalarsiz biror bir matnning mavjudligini tasavvur qilib boʻlmaydi, baʼzi matnlar esa, sarlavhasiz, contrast-stilistik vosita sifatida boʻlishi mumkin. Matn yasovchi funksiyada har doim ham frazeologik birliklar va soʻz tartibi, abzasdagi chekinish va substantiv infinitiv koʻrinavermaydi. Ushbu matn hosil qiluvchi omillarni belgilovchi vositalar deb atash mumkin. Shubhasiz, matn kommunikativ akt sifatida doimo voqelik bilan bogʻliq. Badiiy matn bundan mustasno emas, garchi uning aksariyat qismi badiiy adabiyotga asoslangan boʻlishi mumkin. Badiiy matnning dolzarbligi oʻziga xos, chunki u yozuvchi tasavvuri kuchi bilan yaratilgan badiiy olam bilan bogʻliq boʻlib, voqelik va fantastikani uygʻunlashtiradi¹⁸. Har qanday matn voqelik bilan aloqadorki, uning asosiy

¹⁸ Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981. –175 с.

parametrlarini aks ettiradi. Zotan, ushbu parametrlar zamon, makon, jarayonlarning rivojlanish tabiati, bu temporal-makon va zamon shakli tuzilmasida o'z ifodasini topadi. Boshqa tomondan, matn ijtimoiy faoliyat shakli sifatida doimo so'zlovchining kommunikativ niyatini, uning g'oyaviy-estetik pozitsiyasini, dunyoqarashini belgilab beradi.

Matn – nutq harakatining og'zaki yoki yozma ravishda amalga oshirilishidir. “Semantik birlik bu – tarkibiy va semantik yaxlitlik bilan ajralib turadigan ijtimoiy ahamiyatga ega, vaziyatli shartli kommunikativ birlikdir”¹⁹. Matn rasmiy, kompozitsion, semantik va mazmun jihatlarida chegaralarga ega. Matnning o'ziga xos tuzilishi og'zaki va og'zaki (ya'ni verbal va noverbal) bo'lmagan lingvistik vositalarning leksik ma'nosi bilan ifodalangan, turli nomga ega harakat usullarining o'zaro bog'liqligi ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Bundan tashqari, matn semantik xususiyatlarning binar qarama-qarshiligi prosessuallik yaxlitlik doirasida ifodalanishi ham mumkin. Zero, biz rivojlanayotgan yoki to'liq harakatni ifodalashga qodir bo'lgan tugallanmagan oddiy o'tgan zamonning, davomli zamon shakllari rasmiy-semantik qarama-qarshiligini nazarda tutmoqdamiz. Berilgan oppozitsiyaning matn hosil qiluvchi xususiyati rivojlanayotgan ish-harakati ingliz tilida Past Simple (o'tgan noaniq zamon) zamon shakldagi fe'l yordamida nomoyon bo'ladi, o'zbek tilida esa, so'zlovchi tomonidan yetkazilayotgan ma'lumotni so'zlashi vaqtiga nisbatan yaqin yoki oldin sodir etilganligiga qarab yaqin va uzoq o'tgan zamonlar tanlanadi.

Matnda iqtibos keltirgan ko'chirma gap matndagi qahramonning biror masala bo'yicha hissiy pozitsiyasini ko'rsatishi yoki (uning) bayonotining haqiqiylikni baholash yoki matn tarkibini qurish uchun grammatik vosita bo'lib xizmat qiladi. Narrativ har qanday holatda ham, iqtibos qilingan nutq asl nutq sodir bo'lgan boshqa voqeani va oldingi voqealarda shunday gapirgan odamlar sifatida indekslangan ijtimoiy turlarni alohida ochib ko'rsatadi.

Quyidagi o'zbek tilidagi matnga e'tibor qaratamiz: *Men iljayib turaverdim. U ovutib turgan ukamni qo'ydi-da, qo'g'irchoqlarning oldiga yugurib ketdi. Men ham lip etib xujraga kirib, o'xachada yog' o'yib oldim. Yog'ni bir qog'ozga turmushlab lippamga qistirdim. U erdan chiqib o'txonaga kirdim. Kulrang tovug'im piyozdan qilingan moyak ustida tug'ib o'tirar edi. Sekin borib qanotini ko'tarib qaragam, allaqachon tug'ib bo'lgan ekan. Lekin onalik mehri bilan tuxum ustida bosib yotar ekan. Tuxumni oldim, tovuq qag'allab qochdi* (G'afur G'ulom, Shum bola). Lavhadagi birinchi kirish gapida imperfekt ifodasi yuzaga kelgan. Bu ko'proq -a qo'shimchasi “*turaverdim*” qo'shimchasi yordamida shakllangan. Ikkinchi va uchinchi gaplarda alohida kichik vaziyatlar tugallangan perfektiv vaziyatlar yuzaga kelgan. Jumladan qo'ydi, yugurib ketdi, ya'ni biinchisi harakatning tugallanishi, ikkinchisi makonni tark etish ma'nosi yuzaga kelgan. Keyingi jumladagi *o'yib oldim* alohida perfektiv natijaviy ish harakatni ifodalab kelgan. Ushbu misollardagi tugallanganlik ma'nolari *qo'ymoq, ketmoq, olmoq* kabi fe'llarning leksik-semantik xususiyati bilan bog'liq. Bir tomondan qaraganda, birinchi gapdagi davomiylik, ya'ni imperfektivlik zamon semantikasi bilan bog'liq. Keyingi gaplardagi perfektiv ma'nolar uchun o'tgan zamon qo'shimchasi shunchaki rasmiy mezon bo'lib xizmat

¹⁹ Волкова З.Н. К лингвистике эпического текста/ В КВ.: Семантические и стилистические проблемы текста/ Сб. научн. трудов МГПИИЯ им.М.Тореза. – Вып.218 – Москва, 1983. – С. 199-208.

